



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-iyun***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 104 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 044 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 568,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 202,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 71,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 205,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,3 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 161,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	4 568,8	107,4
Jizzax sh	1 044,8	108,9
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	93,8	105,4
Baxmal	439,1	106,6
G'allaorol	516,8	107,6
Sh Rashidov	742,9	108,4
Do'stlik	192,4	105,7
Zomin	528,0	106,5
Zarbdor	199,3	104,8
Mirzacho'l	150,2	105,2
Zafarobod	97,8	105,8
Paxtakor	279,0	106,7
Forish	223,8	108,5
Yangiobod	60,9	105,5


Chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (108,9 %), Forish (108,5 %), Sh.Rashidov (108,4 %) va G'allaorol (107,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ni tashkil qildi.

2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida, o'tgan yilning mos oylariga nisbatan (foizda)



2024-yilning yanvar-iyun oyida o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 22,8 % bilan 1 044,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,3 % bilan hajmi 60,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 366,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 9,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 202,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 71,9 % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,7 %), Mirzacho'l (99,5 %), Forish (99,5 %) va Do'stlik (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 4,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (15,3 %), Jizzax shahri (8,2 %), G'allaorol (3,2 %), Arnasoy (1,2 %) tumanlarida kuzatildi.

4,4 %



95,6 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



ming so'mda

Jizzax shahri

5 309,1

Forish

2 267,7

Arnasoy

1 918,6

Yangiobod

2 036,2

Baxmal

2 561,9

G'allaorol

2 751,7

Sh.Rashidov

3 039,5

Do'stlik

2 741,2

Zomin

2 923,6

Zarbdor

2 095,7

Mirzacho'l

2 701,5

Zafarobod


1 814,2

Paxtakor

3 431,6

2024-yilning 1-iyul holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 016,5 ming. so'mni (2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,2%) tashkil qildi.


Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (5 309,1 ming. so'm), Paxtakor (3 431,6 ming. so'm) va Sh.Rashidov (3 039,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavil'onlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1 161,4	108,8
Jizzax sh	257,9	116,0
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	1,7	169,9
Baxmal	191,9	114,9
G'allaorol	159,5	129,8
Sh Rashidov	68,4	61,7
Do'stlik	50,7	100,5
Zomin	147,2	106,8
Zarbdor	82,8	102,9
Mirzacho'l	48,9	107,2
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	70,7	114,3
Forish	60,2	125,4
Yangiobod	21,5	110,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 161,4 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 548,9 mlrd. so'mni (128,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 612,5 mlrd so'mni (67,2 %) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 548,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (28,4 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 28,4 mlrd. so'm  30,5 %	Non va non mahsulotlari 13,8 mlrd. so'm  14,7 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 8,9 mlrd. so'm  9,5 %
Tovuq go'shti 4,2 mlrd. so'm  4,5 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 4,0 mlrd. so'm  4,3 %	Tuxum 5,0 mlrd. so'm  5,3 %
Ziravorlar 5,6 mlrd. so'm  6,0 %	Sut va sut mahsulotlari 3,2 mlrd. so'm  3,4 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 14,7 mlrd. so'm  15,7 %
Tuzlamalar 0,6 mlrd. so'm  0,6 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 0,4 mlrd. so'm  0,4 %	Nooziq-ovqat tovarlar 4,8 mlrd. so'm 5,1 %

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 612,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 93,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 26,3 mlrd. so'mni, otlar – 1,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 51,4 mlrd. so'm  42,5 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 24,2 mlrd. so'm  20,0 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 17,6 mlrd. so'm  14,6 %
Qo'ylar 22,4 mlrd. so'm  18,5 %	Otlar 1,1 mlrd. so'm  0,9 %	Echkilar 3,9 mlrd. so'm  3,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,2 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 0,1 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,0 mlrd. so'm  0,0 %
Qushlar 0,0 mlrd. so'm  0,0%		

2024-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 046 tani tashkil etib, ularning barchasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oyiga nisbatan o‘lish, foizda
Jizzax viloyati	168,7	108,6
Jizzax sh	59,7	96,3
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	2,4	97,6
Baxmal	8,5	84,7
G‘allaorol	9,4	92,6
Sh Rashidov	33,7	105,5
Do‘stlik	4,4	101,7
Zomin	29,6	238,4
Zarbdor	7,0	92,4
Mirzacho‘l	3,3	101,6
Zafarobod	1,1	103,0
Paxtakor	4,3	98,1
Forish	4,0	89,3
Yangiobod	1,3	101,7

2024-yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 168,7 mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida

	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	5 964,6	110,6
Jizzax sh	4 121,3	118,0
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	1,8	120,3
Baxmal	1 182,9	103,1
G'allaorol	239,9	4,3 m.
Sh.Rashidov	255,7	49,9
Do'stlik	1,7	120,3
Zomin	135,6	84,0
Zarbdor	0,2	120,3
Mirzacho'l	7,7	120,3
Zafarobod	0,5	120,3
Paxtakor	5,0	120,3
Forish	11,4	107,7
Yangiobod	0,9	120,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (4 121,3 mlrd. so'm), Baxmal (1 182,9 mlrd. so'm) va Sh.Rashidov (255,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-iyun oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 5 964,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 970,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 4,4 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 2 993,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 63,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'langan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'mda)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 931,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 31,6 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

22,7 %

211,4 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

77,3 %

720,1 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik
korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi hisoblarga ko'ra 720,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 28,7 % ga o'sdi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 77,3 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR’ATI

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o‘shish sur’atlariga ega yirik korxonalar Forish (15,9 m.), Jizzax sh (2,0 m.) va Sh.Rashidov (123,0) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	931,5	131,6
Jizzax sh	216,3	2,0 m.
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	28,5	112,4
Baxmal	50,5	35,8
G‘allaorol	51,8	116,4
Sh Rashidov	144,4	123,0
Do‘stlik	25,9	73,5
Zomin	173,2	109,4
Zarbdor	39,5	97,3
Mirzacho‘l	7,5	98,3
Zafarobod	8,0	97,5
Paxtakor	8,3	108,7
Forish	173,3	15,9 m.
Yangiobod	4,3	116,3